

## 4-5 YOSHLI BOLALARNING IJTIMOY-HISSIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA TA'LIMYIY FAOLIYATLARDA QO'LLANILGAN METODLAR

**Toshpulatova Nargiza Abduraimovna**

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Maktabgacha ta'lim fakulteti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

[toshpulatovanargiza54@gmail.com](mailto:toshpulatovanargiza54@gmail.com)

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada muallif maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy-hissiy kompetensiyalarini rivojlantirish, ta'limiy faoliyatlar orqali bolalarning muloqot vositalarini shakllantirish, shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda tabiat bilan tanishtirish, sahnalashtirish faoliyati, tasviriy faoliyatning ahamiyati va ularni o'tkazishda qo'llanilgan metodlar haqida so'z boradi.*

***Kalit so'zlar:** kompetensiya, ijtimoiy-hissiy, ta'limiy faoliyat, muloqot, ob'yekt, tasviriy faoliyat, izchillik, ta'lim, applikasiya, sahnalashtirish.*

***Abstract:** In this article, the author talks about the development of socio-emotional competencies of preschool children, the formation of children's means of communication through educational activities, as well as the importance of familiarization with nature, dramatization activities, visual activities in preparing preschool children for school education.*

***Key words:** competence, social-emotional, educational activity, communication, object, visual activity, consistency, education, application, staging.*

### KIRISH

Maktabgacha ta'lim sohasi uzluksiz ta'lim tizimining dastlabki bo'g'ini bo'lishi bilan birga keyingi ta'lim tizimida, bolani maktabga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom va har tomonlama yetuk, shu bilan birga maktabga tayyorlagan holda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi. Bu borada bolaning ijtimoiy-hissiy kompetensiyalarini rivojlantirish ehg

muhim masalalardan biri hisoblanadi. Davlat talablari ko'rsatkichlarini belgilashda davlat va jamiyatning ijtimoiy buyurtmasi, maktabgacha yoshdagi bolalarning jismonan sog'lomligi, qobiliyati, ehtiyoji va imkoniyatlari, ya'ni bola shaxsining ustuvorligi nazarda tutilgan.<sup>1</sup>

4-5 yoshdagi bolalar kattalarning muhabbatiga, samimiy munosabatiga nisbatan ehtiyojni sezishadi. Kattalarga ishonch, uning hissiy holatini (suyunishini, mag'rurlanishini, kamtarinligini, jahldorligini) his qilish imkoniyati shakllanadi. Bolalar kattalarga savollar bilan murojaat qila boshlaydi. Bu savollar orqali bolalar yangi ma'lumot olishga intiladilar va ko'p narsalarni bilib olishga qiziqadilar.

Bu yoshdagi bolada tengdoshlari bilan muloqot qilish, boshqalar bilan o'zini solishtirish, taqlid qilishga nisbatan ehtiyoj kuchayib boradi.

Tengdoshlari bilan muloqot davrida bolalar o'yinda va boshqa faoliyatda ma'lumotlar, rejalar, vazifalarning taqsimlanishi asosida birgalikda faoliyat olib borishga intiladi.

Shuni ta'kidlash lozimki tarbiyachi rivojlanmasa, maktabgacha ta'lim rivojlanmaydi. Tarbiyachining rivojlanishi esa, o'z ustida tinimsiz izlanishi, ta'lim-tarbiyani uyg'unlashtirgan holda yangiliklar yarata olish, xalq pedagogikasini chuqur bilishi bilan xorij tajribasi yangiliklarini o'zlashtirib, o'z faoliyatini boyitib borishi va ularni amaliyotda qo'llay olishi bilan ahamiyatlidir. Maktabgacha ta'lim boshlang'ich ta'limning poydevori sanaladi. Poydevor mustahkam bo'lsa imorat uzoq yillar qad ko'tarib turadi.

## **NATIJALAR**

Ta'limiy faoliyatlarda bolaning nutqi boyiydi, eng asosiysi, ijtimoiy-hissiy komtetensiyalari rivojlanadi.

Tabiat bilan tanishtirish, ekskursiya, sayr, jonli va jonsiz tabiat bolalarning eng sevimli faoliyat turidan biri hisoblanadi. Chunki, bolani tabiat bilan tanishtirib borar ekanmiz, u o'zi uchun doimo qiziq bo'lgan jonli va jonsiz tabiat bilan tanishib

---

<sup>1</sup> Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari, T.: 2018.

boradi hamda ,o‘z hissiyotlarini bayon etadi, qiziqishlarini so‘raydi, mehnat qilishi natijasida muloqotga kirishadi.

Bolalarda mehnatni sevish, o‘zgaralar mehratini qadrlash, o‘simlik va hayvonlarni asrash, ularni parvarish qilish, o‘z Vatanini, tabiatni sevish, tabiat go‘zalliklarini ko‘ra olish kabi hislatlarni o‘stirish orqali tarbiyaviy vazifalar hal qilinadi. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida tabiat bilan yaqindan tanishtirmasdan turib, bolalarni jismonan rivojlantirish, nutq va tafakkurlarini boyitish vazifalarini amalga oshirish mumkin emas. <sup>1</sup>

## MUHOKAMA

Shunday ekan, sahnalashtirish faoliyati ifodali nutq hamda intellektual va badiiy-estetik tarbiyaning shakllanishiga taalluqli bo‘lgan ko‘pgina pedagogik masalalarni hal etish imkonini beradi. Shuningdek, u bolaning sezgi, his-tuyg‘ulari namoyon bo‘lishida beqiyos manba hisoblanadi, ma‘naviy boyligini oshiradi. Demak, sahnalashtirish faoliyati bolaning hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etishda zarur bo‘lgan shart-sharoit, ya‘ni empatiyaning rivojlanishida muhim vosita hisoblanadi. <sup>2</sup>

Maktabgacha yoshdagi bolaga biror narsani o‘rgatish, unga qandaydir faoliyat turiga qiziqish uyg‘otishning eng yaxshi usuli - uning muvaffaqiyatini rag‘batlantirish, uning harakatlarini maqtashdir.

Tasviriy faoliyat bolalarni axloqiy jihatdan tarbiyalaydi. Chunki bolalar o‘z ishlarida bizning hayotimizda, jamiyatda bo‘layotgan voqea-hodisalarni aks ettiradilar, ulardan mamnun bo‘ladilar, hayajonlanadilar.

Maktabga bolalarni tayyorlashda tasviriy faoliyat katta ahamiyat kasb etadi. Rasm, loy, applikatsiya, qurish materialllari bo‘yicha bilim, malakalarini egallash maktabda tasviriy faoliyat darslari va mehnat darslarini muvaffaqiyatli egallashlariga asos bo‘ladi. Ularni o‘quv faoliyatiga tayyorlaydi<sup>3</sup>.

---

<sup>1</sup> G.E.Djanpeisova, M.A.Rasulxo‘jayeva “Tabiat bilan tanishtirish” o‘quv qo‘llanma, t. 2020

<sup>2</sup> Sh.T. Xasanova. “Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o‘rgatish” o‘quv qo‘llanma. T .2019 . 33- bet.

<sup>3</sup> Z.T.Radjapova. “Dizayn to‘garaklarida o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi “Dissertatsiya. Toshkent-2020

4-5 Yoshli bolalarning ijtimoiy-hissiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan metod va usullar

Ogʻzaki metod

Ogʻzaki metoddan taʼlim jarayonida keng foydalaniladi. Ular bolalarning umumiy madaniyati, mantiqiy fikrlashi hamda bilish qobiliyatini rivojlantirish bilan bogʻliqdir

Koʻrgazmali metod

Koʻrgazmali metodlar - deganda, taʼlim jarayonida qoʻllaniladigan koʻrgazmali qurollar va texnika vositalariga koʻp darajada bogʻliq boʻlgan oʻquv materialini oʻzlashtirish shakllari tushuniladi.

Amaliy metod Bunda nazariy bilimlarni amaliyotda qoʻllash koʻnikmasi hosil qilinadi. Amaliy ishlar sinfda yoki tabiiy sharoitlar – maktab yer maydoni, issiqxona, geografik maydonlarda amalga oshiriladi.

Multimedia dasturlari

Multimedia dasturlari bola uchun doim qiziqarli boʻladi. ayniqsa, oʻyinlar animatsion tarzda boʻlsa, bolaning oʻzi oʻynasa. bola tengdoshlari bilan muloqotga kirishadi.

## **XULOSA**

Maktabgacha taʼlim tashkilotida bolalarda maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy-hissiy kompetensiyalarini taʼmiy faoliyatlar orqali rivojlantirish mumkin boʻladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda bunda muloqot juda ham yaxshi rivojlanadi. Bu taʼlimiy faoliyatlarda bolalar oʻzlari eshitgan, koʻrgan voqealar, hikoyalar, kitoblar va boshqa manbalardan olgan bilim, malakalarini, his-hayajonlarini toʻla qoʻllay boshlaydilar. Bu yoshdagi bolalar taʼlimiy faoliyatlarda berilgan taʼlim-tarbiyaning natijasi yaqqol koʻrinib, sezilib turadi. Bolalarga taʼlimiy faoliyatlarni oʻtkazish yuqoridagi metodlar asosida amalga oshirilsa bolalarning ijtimoiy-hissiy kompetensiyalarini rivojlantirishda katta yordam beradi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. “Ilk qadam” maktabgacha ta’lim tashkilotining o‘quv dasturi. – Toshkent, 2018. –
2. Z.T.Radjapova. “Dizayn to‘garaklarida o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi “Dissertatsiya. Toshkent-2020
3. E.Djanpeisova, M.A.Rasulxo‘jayeva “Tabiat bilan tanishtirish” o‘quv qo‘llanma, t. 2020
4. Adilova S. Multimedia va ularni ta’lim jarayonida qo‘llash. // Pedagogik ta’lim, 2001. № 2. –
5. Xasanboyeva O.U. va boshq. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. T.: Ilm ziyo. 2006.
6. Djamilova N.N. Maktabgacha ta’limda metodika fanlarini o‘qitish texnologiyasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2017.
7. Kayumova N. Maktabgacha pedagogika. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2013.
8. Xasanova Sh.T Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o‘rgatish. O‘quv qo‘llanma. T; 2019